



BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA FANLAR INTEGRATSIYASINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHALTLARI

**Ochildiyeva
Ozodaxon Saydali
qizi**

*Qo'qon Universiteti Ta'lismak fakulteti
Boshlang'ich ta'lismalarida fanlar integratsiyasini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari*

Abstract

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lismalarida fanlar integratsiyasini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari hamda fanlar o'rtaida o'zaro aloqalarni tashkil etish, ularni bir-biriga bog'lash orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, fikrlash va mantiqiy idrokini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lismalarida fanlar integratsiyasini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari hamda fanlar o'rtaida o'zaro aloqalarni tashkil etish, ularni bir-biriga bog'lash orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, fikrlash va mantiqiy idrokini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan.

Keywords : integratsiya, ta'lism, fikrlash, boshlang'ich ta'lism

Respublikamizda ta'lismalarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lism-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda. Ta'lismalarining hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dagi ahamiyatli g'oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta'lismalarini rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.¹

Integratsiya so'zi lotincha integratio - tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish degan ma'nolarni anglatadi. Integratsiya so'zini uch xil ma'noda ko'rishimiz mumkin.

1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha.

2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.

3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.²

¹ A.I.Hayitov “Boshlang'ich ta'lismalarini pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrasiga o'qituvchisi. Boshlang'ich ta'lismalarini pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi (uslubiy qo'llanma) 56-bet

² <https://uz.wiktionary.org/wiki/integratsiya>

Boshlang'ich ta'limgarayonida fanlar integratsiyasi ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'limgarayonida qancha o'zgartirishlar kiritilib, turli fanlarni bir-biriga bog'lab o'rgatish natijasida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Boshlang'ich sinflarda fanlararo bog'liqlikni yo'lga qo'yish, o'quvchilarga olamni bir butunlikda va uni barcha elementlarni o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur berish, integratsion darslar orqali oldin mavjud bo'lgan bilimlarni to'ldirib, masalan, ona tili va o'qish darslarini bir-biriga bog'lab o'tishdagi afzalliklarni aniqlab, ular orasidagi mavjud aloqani mustahkamlash, yangilash va bilim darajalarini oshirish kabilardan iborat. Boshlang'ich sinflardagi har bitta fanlarni o'zaro integratsiyalashgan tarzda tashkil qilsa bo'ladi. Jumladan, ona tili va o'qish savodxonligi darsliklaridagi mavzuarni ham bir-biriga bog'langan holda tashkil qilsa o'quvchilarni fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi hamda fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. O'qish savodxonligi kitobidagi berilgan she'rlar, hikoyalar, ertaklar va masallarni matn tahlili orqali o'quvchilarga o'qitib shu hikoya yoki ertakda qatnashgan mustaqil so'z turkumlarga oid so'zlarni ajratishni (ot, sifat, son, fe'l) topshiriq tarzda berishimiz mumkin. Bunda o'quvchilar ham O'qish savodxonligi kitobidagi matnni o'qiysi va ona tili darslarida olgan bilimlarini yanada mustahkamlab, bu ikki fanlar orasidagi o'zaro bog'likni bilib olishadi. Yana bir misol tariqasida 3-sinf O'qish savodxonligi darsligidagi Nasiba Erxonovaning "Qarg'a bilan paxta" hikoyasini misol qilsak bo'ladi. O'quvchilarga darslikdagi hikoyani o'qitib bir nechta topshiriqlarni bajartirishimiz mumkin.

1. Hikoyani mazmunini o'rganish-bunda o'quvchilar hikoyani o'qiydilar hamda hikoyada qatnashgan bos obrazlar, qahramonlarning harakterlari, xulq-atvorlari haqida fikr yuritishadi.

2. Grammatik qoidalar-hikoyada keltirilgan ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlaidan qaysi biri qatnashganini ko'rib, ajratib olishadi.

3. O'quvchilar uchun notanish bo'lgan so'zlarni aniqlash.

4. hikoyada ko'tarilgan asosiy mavzu nima haqidaligini aniqlash.

5. Yozish mashg'ulotini o'tkazish mumkin, bunda o'quvchilar hikoyani davomini o'zlarini yangi obrazlarlar qo'shgan holda yoki ba'zi bir obrazlarni olib tashlagan holda yangi hikoya yaratishlari mumkin.

R.A.Mavlonova, N.H Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limgarayonida integratsiyalashgan pedagogikasi" nomli o'quv qo'llanmadagi quyidagi fikrni ko'rib o'tamiz." Boshlang'ich maktab ta'limgarayonida integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limgarayonida integratsiyalish masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'limgarayonini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas."³ Hozirgi boshlang'ich ta'limgarayonida tubdan o'zgarganligini inobatga oladigan bo'lsak integratsiyalashgan darslarni har bitta fanda qo'llash samarali natija beradi. Yangi avlod darsliklari 4 Ka modeliga asoslangan hamda fanlarni bir-biriga

bog'lab integratsiyalashtirishga mos holda yaratilgan.Bu darsliklar asosida har bitta pedagog fanlarni bi-biriga bog'lab darslarni qiziqarli va tushunarli tarzda o'tishiga yordam beradi.

XIX—XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikri paydo bo'lган. Bu fikr A.Y. Gerd, D.N. Kaygorodov, A.P. Pavlov nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo'linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi.⁴ Yana bir qancha olimlarning darslarni integratsiyalashgan holda o'tish haqida fikrlar berib o'tgan.Bunga misol tariqasida bir nechtasini ko'rib o'tamiz:

Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lган hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar.

D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Bu fikrga qo'shilgan holda matematika fanini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini sonlar bilan tanishtirganimizdan so'ng,ularga savollar berishimiz mumkin.Misol uchun bir raqamini bilamizmi o'quvchilar,bu raqamda qanday bayram nishonlanadi deb so'raymiz shunda o'quvchilar javoblarini yangi ma'lumotlar bilan boshitish mumkin.

Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi.⁵

Xulasa qilamizki, boshlang'ich ta'lim darslarida fanlar integratsiyasini tashkil etish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tarzda olib borilishiga yordam beradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslarning joriy etilgani ta'limda sifat jihatdan samaradorlikka olib kelmoqda.Integratsiya orqali o'quvchilar turli fanlar o'rtasidagi bog'liqliknangi anglab yetishadi. Har bitta fan o'zaro bir-biriga yaqin hamda aloqadordir. Integratsiya boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.I.Hayitov "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi (uslubiy qo'llanma) 56-bet

2. <https://uz.wiktionary.org/wiki/integratsiya>

⁵ CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda Botirova Dilafro'z Jonibekovna Toshkent viloyati Piskent tumani 41-sontumani 9-son umumiyo'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shukurjon Xudoyberdiyev Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 9-son umumiyo'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

R.Mavlonova,N.Raxmonkulova."Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi"O'quv qo'llanma.Toshkent."Voris"nashriyoti

3. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda Botirova Dilafro‘z Jonibekovna Toshkent viloyati Piskent tumani 41-son umumiy o‘rtalim matabining Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Shukurjon Xudoyberdiyev Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 9-son umumiy o‘rtalim
4. R.Mavlonova,N.Raxmonkulova.”Boshlang‘ich pedagogikasi,innovatsiya va qo’llanma.Toshkent.”Voris”nashriyoti ta’lim integratsiyasi”O’quv
5. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
6. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
7. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 408-411.
8. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
9. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O ‘RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.